



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 2

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Abdulla Qahhorning "Bemor" va Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asarlarida inson psixologiyasi va hayotiy kurashning qiyosiy tahlili.

Shodmonova Gulsevar Shodmon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi talabasi

shodmonovagulsevar849@gmail.com +998(95)36713 07

Annotatsiya: Abdulla Qahhorning "Bemor" va Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asarlarida inson psixologiyasi va hayotiy kurashning qiyosiy tahlili.

Аннотация: Сравнительный анализ психологии человека и жизненной борьбы в произведениях Абдуллы Каххора «Больной» и Джека Лондона «Любовь к жизни».

Abstract: A comparative analysis of human psychology and the struggle for survival in Abdulla Qahhor's "The Patient" and Jack London's "Love of Life."

Kalit so'zlar: Odamovi, jamiyat, chorasizlik, sodda tillilik, chiroq, shukronalik, xalqona, shafqatsiz.

Ключевые слова: Необщительный (замкнутый), общество, безысходность, просторечие, светильник (луч света), благодарность, народный, жестокий.

Keywords: Introverted (unsociable), society, hopelessness (despair), colloquialism (plain language), lamp (light), gratitude (thankfulness), folk-like (vernacular), cruel (ruthless).

O'zbek adabiyotining yorqin yulduzi, ulug' adib Abdulla Qahhor o'zining betakror asarlari, o'tkir satira va yumori, ona tilimizning boy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangani bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan" deya Shavkat Mirziyoyev e'tirof etgan. Abdulla Qahhor-o'zbek hikoyachiligiga beqiyos hissa qo'shgan yozuvchi. Uning bolalik yillariga qaytadigan bo'lsak, uning atrofidagi odamlar "indamas", "odamovi" sifatida ta'riflashardi. Buni qarangki, indamas bola o'zining hikoyalari orqali nafaqat o'zbek adabiyotiga balki, jahon adabiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yozuvchining o'qiganda insonlar qalbini tirnaydigan, o'sha davrdagi og'ir vaziyatni ko'rsatib beruvchi "Bemor" asarini tahlil qiladigan bo'lsak, Sotiboldining xotini kasal, ularning birgina qizchasi bor. Afsuski, xotini davosi yo'q, tuzatib bo'lmaydigan kasal, davosi bo'lganda ham mablag' topilmasdi bu qiyin davrda. Aksiga olib, Sotiboldining ham ishlari yurishmagan paytlar edi va gapimizning inkori sifatida shu achchiq ma'lumotlarni keltira olamiz, Sotiboldining chorasizligi — bu shunchaki bir oilaning fojiasi emas, balki o'sha davr jamiyatidagi qashshoqlik va ma'rifatsizlikning inson taqdiriga urilgan ayovsiz tamg'adir. Asarning qisqacha mazmuni shunda. Menimcha, bu asar orqali Abdulla Qahhor jamiyatdagi ijtimoiy fojia va chorasizlik kabi vaziyatlarni ochib bermoqchi bo'lgan va buni uddasidan chiqqan, albatta. Adib qahramonlarining ruhiy holatini chizib berishda ortiqcha bo'yoqlardan foydalanmaydi, aksincha, hayotning achchiq haqiqatini bor bo'yicha, hatto shafqatsiz darajada aniq ko'rsatib beradi. Shu boisdan ham Qahhor asarlarini o'qigan kitobxon shunchaki voqealar rivojini kuzatmaydi, balki har bir so'z





zamiridagi ijtimoiy og'riqni o'z qalbida his qiladi va dunyoni o'zgartirish zaruratini anglab yetadi. Darhaqiqat, yozuvchi Matyoqub Qo'shjonov quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tadi: "Qahhor asarlarida fojia shunchaki o'lim bilan tugamaydi, balki o'sha o'limga olib kelgan ijtimoiy sabablar kitobxonni isyonga chorlaydi". Shuni ham ta'kidlab o'tishim joizki, Abdulla Qahhor ijodida meni xursand qiladigan va uning asarlarini o'qishga majbur qiluvchi sabab bu-sodda tillilik, chunki ko'rishimiz mumkinki, yozuvchining barcha asarlarida biz tushunishimiz oson bo'lishi uchun hayotdagi real vaziyat, holatlar yoritiladi va bu orqali o'quvchi o'qishdan zavq va holatlardan saboq, xulosa oladi. "Abdulla Qahhor so'zning zargari edi. U hayotdagi eng murakkab ijtimoiy dramalarni shunday sodda, shunday lo'nda tilda tasvirlab beradiki, o'quvchi asar qahramoni bilan yonma-yon turgandek, uning dardu hasratini o'ziniki kabi his qiladi. Adib asarlaridagi hayotiy haqiqat o'quvchini nafaqat zavqlantiradi, balki uni o'ylashga, xulosa chiqarishga va yashashdan saboq olishga majbur qiladi." - deya ta'riflagan Ozod Sharafiddinov. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'z faoliyati va asarlari orqali barchaning e'tiborini qozongan Jek London hisoblanadi. "Jek London inson irodasini eng shafqatsiz vaziyatlarda sinovdan o'tkazish ustasidir. Uning qahramonlari orqali biz insonning yashashga bo'lgan ishtiyoqi har qanday mantiqdan ustun ekanligini ko'ramiz" Buni qarangki, bu ijodkor deyarli ketma-ket yashagan va asarlarining mazmun-mohiyati bir-biriga yaqin bo'lgan Abdulla Qahhorning e'tiborini tortgan. Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu asarda bosh qahramon tabiat va ochlik bilan kurashadi. Biz amin bo'lamizki, inson irodasi hatto tabiatning shafqatsiz qonunlaridan ham ustun kelishi mumkinligiga. Hozirgi davrga kelib ba'zi bir insonlarimiz esa oddiygina hayot qiyinchiligiga taslim bo'lishi va harakat qilmaslik natijasida ko'ngilsiz voqealar yoki o'z hayotidan qoniqmaslik hissi kelib chiqmoqda. Biz e'tiborga olishimiz kerak bo'lgan yana bir jihat asar qahramonimiz qahraton qishda oyog'i singan holatda ham hayot uchun, tirik qolish uchun harakat qilayotgani va bu asarni o'qigan inson hech qanday oltin yoki tilla hayotimizdan ustun emasligini tushunib, anglab yetadi.

Bu ikki asarning qiyosiy tahlili sifatida quyidagilarni keltirib o'tmoqchiman: "Bemor" asarida Sotiboldi va uning xotini faqatgina yolg'iz Allohdan najot kutadi. "Hayotga muhabbat" da esa har bir qadam uchun kurashadi va tirik qolishga astoydil harakat qiladi. Ikki asarning "dushmani" sifatida "Bemor" hikoyasida qashshoqlik va jamiyatdagi illatlar bo'lsa, "Hayotga muhabbat" asarida esa tabiat va nafs deb hisoblayman. Asarlardagi ramziy obrazlar deb: "Bemor" asaridagi "chiroq" detalini olsak, u bemor ayolning hayotining so'nggi lahzasi aynan chiroq lipillab o'chishida bo'lsa, "Hayotga muhabbat" da esa bo'ri obrazi sifatida ko'rdim, chunki qahramonimiz bo'rini ko'rganida hayoti tugashini taxmin qilgandi, ammo taxminlar noto'g'ri chiqib, omon qoladi. Qahramonning bo'rini yengishi-insonning o'lim ustidan qozongan g'alabasi deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Abdulla Qahhor va Jek London yozish uslubi jihatdan bir-biriga yaqin ya'ni asarlarni yaratish uslubi xalqona tarzda. Bu





ikki asarlarni birlashtirib turuvchi jihatlar ham mavjud: ikkala asarda ham asosiy mavzu - o'lim bilan yuzma-yuz kelish ya'ni har ikki asarning tub mohiyatida yashashga bo'lgan so'nmas ishonch va hayotning shafqatsiz sinovlaridan so'ng qayta tug'ilish (hayotga qaytish) masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Birida chorasizlik sababli imkonsiz insonlar, birida esa jismoniy charchoq bo'lishiga qaramasdan, tirik qolishga o'zini undagan shaxs. Yana bir jihat: qahramonlarimiz qaysidir ma'noda yolg'iz, sababi, ularga hech kim yordam berolmaydi, xoh mahalla-ko'y bo'lsin, xoh Bill bo'lsin. Men tahlil qilgan ikkala yozuvchi ham hayotdagi barcha qiyinchiliklar, turfa vaziyatlarni bo'rttirmasdan, o'ziday qilib tasvirlaydi. Bu esa yozuvchilarning o'ziga xos mahorati borligidan darakdir. So'zinning intihosi sifatida shuni ta'kidlab o'tmoqchiman: asar tinglovchiga ta'sir qilishi, u kitobi har safar ko'rganida yuragi tinalishi uchun, u juda katta, yirik kitob bo'lishi shart emas, balki mana biz tahlil qilgan hikoyalar kabi asarni o'qiganda o'ziga saboq olishi, ba'zi bir o'rinlarda shukronalik hissi tuyulishi kerak deb o'ylayman. Qisqacha qilib aytganda, gap hajmda emas, balki ma'no-mazmun va ta'sir qilish xususiyatiga ega bo'lishida. Bu gapimni isboti sifatida ushbu so'zlarni keltirib o'tmoqchiman: Abdulla Qahhor asarlarida so'zlar shunchaki gap emas, balki hayotning tomir urishidir. U kichik bir detal orqali butun bir jamiyatning dardini ko'rsata oladi."— Ozod Sharafiddinov. Zero, har ikki adib o'z asarlari orqali insoniyatga bir haqiqatni uqtiradi: hayot qanchalik shafqatsiz sinovlarga boy bo'lmasin, inson o'zligini saqlab qolishi va har qanday sharoitda ham yashash uchun kurashdan to'xtamasligi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Maugham, W. S. (1938). The Summing Up. London: Heinemann.
3. Qo'shjonov, M. Abdulla Qahhor mahorati. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1988.
4. Ziyo.uz portal — O'zbek va jahon adabiyoti elektron kutubxonasi.
5. Sharafiddinov O. Ijodiy kamolot yo'lida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
6. Sharafiddinov, O. Ma'naviy kamolot yo'llarida. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2001.

